



Mehnatga layoqatsizlik puli to'lanmagan

5-betda o'qing



Ishongan tog'da kiyik yotmas

6-betda o'qing

INSON va qonun

2025-YIL
11-MART
SESHANBA

№ 10
(1474)

www.hudud24.uz

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

ADLIYA XABARI

TOSHKENT YURIDIK FORUMI – 2025: RAQAMLI DAVR VA HUQUQIY KELAJAK MUAMMOLARI

May oyida Toshkent yana huquq va qurisprudensiya sohasidagi yetakchi mutaxassislarni o'ziga jalb etuvchi markazga aylanadi.

29–30-may kunlari O'zbekiston poytaxtida navbatdagi "Tashkent Law Spring" xalqaro yuridik forumi bo'lib o'tadi. Bu yilgi forumning asosiy mavzusi – "Raqamli texnologiyalar davri: kelajakka huquqiy nazar".

Forum an'anaviy tarzda turli mamlakatlardan davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, yetakchi huquqshunoslik kompaniyalari, ilmiy hamjamiyat vakillari va mutaxassislarni bir maydonda jamlaydi.

Ishtirokchilar raqamli davrning asosiy huquqiy muammolari, sun'iy intellekti tartibga solish, kiberxavfsizlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, elektron tijorat va raqamlashtirish sharoitida huquqni qo'llash amaliyotining o'zgarishi masalalarini muhokama qiladilar.

"Tashkent Law Spring" uzoq vaqtdan beri o'zini huquq sohasida tajriba almashish va zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim xalqaro maydon sifatida ko'rsatib kelmoqda.



✓ Milliy markaz tashkil etiladi

"Ko'chmas mulkni ommaviy baholash tizimi joriy etish to'g'risida"gi Prezident farmoniga ko'ra, Kadastr agentligi huzurida Ko'chmas mulkni ommaviy baholash milliy markazi tashkil etiladi.

Shuningdek, Iqtisodiyot va moliya vazirligi – ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiruvchi organ etib;

Kadastr agentligi – ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasida maxsus vakolatli organ etib;

Milliy markaz – ko'chmas mulkni ommaviy baholash sohasida ijro etuvchi organ etib belgilandi.

2026-yil oxirigacha Toshkent shahridagi eksperiment natijalari, ilg'or xorijiy tajriba hamda xalqaro ekspertlarning xulosalari va tavsiyalari asosida "Ko'chmas mulkni ommaviy baholash to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqiladi.



✓ Pul mukofoti miqdori oshirildi

O'zbekiston Respublikasining 2025-yil 28-fevraldagi qonuni bilan ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi.

Jumladan, qonun bilan "Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi hamda "Qon va uning tarkibiy qismlari donorigi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga "O'zbekiston Respublikasi faxriy donori" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan shaxslar uchun bir yo'la beriladigan pul mukofoti miqdori oshirilishini nazarda tutuvchi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bunda mazkur ko'krak nishoni bilan taqdirlanadiganlar BHMning 15 baravari (5 million 625 ming so'm) miqdorida bir yo'la beriladigan pul mukofotini olishi belgilandi. Ilgari BHMning 5 baravari edi.

Shuningdek, ularga shahar yo'lovchi transportidan (bundan yo'nalishli va yo'nalishsiz taksilar mustasno) bepul foydalanish, o'zlari uchun qulay bo'lgan vaqtda har yilgi mehnat ta'tiliga chiqish hamda sanatoriy-kurortlarda davolanish uchun yo'llanmalarni navbatsiz olish huquqi berilmoqda.

@huquqiyaxborot

2 JARAYON

DAVLAT BOSHQARUVIDA DUNYOVIIYLIK

O'ZBEKISTON Respublikasida fuqarolar-ning vijdon erkinligini ta'minlash va diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasida dunyoviy davlatni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va mexanizmlari belgilab berilgan.

Davlat boshqaruvida dunyoviylik – davlat boshqaruvida oid qarorlarni qabul qilish hamda amalga oshirishda Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarni va madaniy merosni hurmat qilgan holda, umumjamiyat manfaatlarini ko'zlash, ilmiy asoslangan yondashuvlarga tayanishdir.

Zaruriyat

Dunyoviy davlat boshqaruvi jamiyatda barqarorlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda barcha ijtimoiy qatlamlarga teng imkoniyatlar yaratish uchun zarur.

Bu yondashuv davlat qarorlarini subyektiv diniy qarashlardan xoli qilish va barcha fuqarolarning manfaatlarini hisobga olish imkonini beradi. Dunyoviylik orqali jamiyatda turli qatlamlar o'rtasida murosas va o'zaro hurmat shakllanadi, shuningdek, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga zamin yaratiladi.

Ahamiyati

Huquqiylik – davlat boshqaruvida oid qarorlar Konstitutsiya va qonunlar asosida qabul qilinishi kerak. Bu esa davlatni boshqarishda aniq dunyoviy qoidalarga amal qilishni ta'minlaydi.

Ijtimoiy barqarorlik – turli ijtimoiy va diniy guruhlar manfaatlarini bir xilda himoya qilinadi. Bunda, hech bir qatlam o'zini kamsitilgan yoki imtiyozli deb hisoblamaydi.

Ilmiy yondashuv – davlat boshqaruvi tadqiqot va tahlillar asosida amalga oshiriladi. Bu esa

samarali va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Inklyuzivlik – fuqarolik jamiyati institutlari va barcha ijtimoiy guruhlar qaror qabul qilish jarayoniga jalb etiladi. Bu demokratik boshqaruvning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib, fuqarolarning davlat ishlarida ishtirok etish imkoniyatini oshiradi.

Mexanizmlar

Davlat boshqaruvida dunyoviylikni ta'minlash uchun bir qator mexanizmlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- normativ-huquqiy hujjatlarni, xalqaro shartnomalarni va boshqaruvga oid qarorlarni ishlab chiqish, qabul qilish hamda amaliyotga joriy etish jarayonida umumjamiyat manfaatlarini ko'zlash, ilmiy asoslangan xulosalarga tayanishni qat'iy ta'minlash;
- davlat boshqaruvida oid qarorlarni qabul qilishda fuqarolar, fuqarolik jamiyati institutlari va turli ijtimoiy guruhlar vakillarini keng jalb qilish;
- diniy belgilarga ko'ra, siyosiy partiyalarni va ommaviy jamoat harakatlarini tashkil etishga yo'l qo'ymaslik yuzasidan tashkiliy va huquqiy choralar ko'rish;
- diniy tashkilotlar professional xizmatchilarining saylov to'g'risidagi qonunchilikda belgilangan cheklolarga rioya etishini ta'minlash;
- davlat organlari va tashkilotlari xodimlari, Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarining va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining diniy qarashlari ularning professional faoliyatiga va funksional vazifalarini amalga oshirishiga ta'sir qilmasligini ta'minlash;

sud hokimiyatining milliy, irqiy yoki siyosiy va diniy ta'sirlardan mustaqil va xoli bo'lishini ta'minlash;

davlat xizmatchilarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimining dunyoviy qadriyatlar asosida tashkil etilishini ta'minlash;

davlat xizmatiga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ularning umumjamiyat manfaatlarini anglash, oqilona va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlash;

davlat fuqarolik xizmatchilarining va harbiy xizmatchilarning, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining hamda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarining faoliyatini qonunchilik hujjatlari asosida olib borishini ta'minlash;

dunyoviylik asoslari va umumjamiyat manfaatlariga rahna soluvchi ichki va tashqi xavflarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Davlat boshqaruvida dunyoviylikni ta'minlash nafaqat huquqiy talab, balki ijtimoiy barqarorlik va barcha fuqarolar uchun tenglikni kafolatlash uchun muhim mexanizmdir.

Mahliyo TURDIYEVA,
Toshkent shahar adliya boshqarmasi
mas'ul xodimi

Bugun Yangi O'zbekiston siyosati-da bu alohida mezonga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, kollej va texnikumlarda o'qiyotgan qizlarga davlat grantlari, to'lov kontraktida o'qiyotganlarga foizsiz ta'lim kreditlari, ehtiyojmand toifadagilarga oliy ta'limga kirish uchun tavsiyanomalar, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish uchun kreditlar, og'ir ijtimoiy ahvoldagi xotin-qizlarga imtiyozli uy-joylar, "Ayollar daftari"ga kiritilgan yolg'iz ayollarning farzandlariga bog'chada tarbiyalanishi uchun imtiyozlar berilmoqda.

Hukumatning 2022-yil 15-avgustdagi qarori bilan hali dunyo tajribasida biror mamlakatda uchramaydigan, magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini qaytarish shartisiz davlat tomonidan qoplab berish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Natijada hozirda magistraturada o'qiyotgan xotin-qizlar soni 11 karra-ga oshdi.

Shu o'rinda davlatimiz rahbarining "Ayol baxtli bo'lsa, oila va jamiyat ham albatta baxtli bo'ladi. Shuning uchun ham barchamiz – Prezidentdan tortib eng quyi bo'g'indagi rahbar va mutasaddilar ana shu oliy mezonga amal qilib ishlashimiz zarur. Shundagina xalqimiz ham, Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladi", degan so'zlari mamlakatimizda bu boradagi amalga oshirilayotgan islohotlarimizda dasturilamal bo'lib kelayotganini alohida ta'kidlash lozim.

AYOL BAXTLI EKAN, OILA VA JAMIYAT FAROVON BO'LADI

AYOLNING ilmi bo'lishi, turli sohada malakali ta'limni egallashi katta ahamiyatga ega. Bu bevosita jamiyatning hozirgi va kelgusidagi rivoji bilan bog'liq. Ya'ni ayol qanchalik ilm va ma'rifatli bo'lsa, farzandlariga ham chiroyli tarbiya bera oladi.

Qizlarning ilmi bo'lishini rag'batlantirish uzoqni ko'zlab bosilgan muhim qadamdir. Bugungi talaba qiz ertangi kunda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishi bilan birga, salohiyatli farzandni tarbiyalaydigan ona ham bo'ladi. Ma'rifatli ayol o'z sohasida ham, oilada ham kelajakka daxldor to'g'ri qaror qabul qilinishiga munosib hissa qo'shadi.

Darhaqiqat, bugungi kunda mamlakatimizda oliy, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning qariyb 48 foizini xotin-qizlar tashkil etayotganini alohida ta'kidlash kerak. Ular orasida 737 nafar fan doktori, 4 ming 652 nafar fan nomzodi yoki falsafa doktori bor. Shuningdek, ilmiy unvonlarga ega ayollar soni 3 ming 770 nafarni tashkil etmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida ham xotin-qizlar munosib o'rin egallagan. Xususan, 7 nafar ayol rektor lavozimida, 45 nafar prorektor, 70 nafardan ziyod



xotin-qizlar fakultet dekani sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda 13 ming 214 nafar xotin-qiz oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichida tahsil olmoqda. Bu esa umumiy izlanuvchilar sonining 50 foizini tashkil etadi.

Shuningdek, bugungi kunda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizi, ya'ni 57 nafari, Senat a'zolarining 27 foizi yoki 16 nafari ayollarimizdan tashkil topgan bo'lib, bu mintaqadagi eng yu-

qori ko'rsatkich hisoblanadi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kuchaygani jamiyatimiz rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsata boshlaganini hayotning o'zi tasdiqlamoqda. Bu esa oila, onalik va bolalik, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish, umuman, ijtimoiy masalalar bo'yicha qonunchilik faoliyati hamda parlament nazoratini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, o'z sohasining zukko bilimdoni bo'lish bilan bir qatorda ayolning zimmasida suyukli yor, mehribon ona, oqibatli farzand, shirin so'z va chaqqon kelin, orasta beka bo'lishdek mas'uliyat ham bor. Bunday mas'uliyatni o'zining nozik yelkalarida ko'tarib, uni sharaf bilan ado etayotgan, shu bilan birga, ilm talab qilishning farz ekanini unutmay, muttasil izlanishda bo'layotgan ayollarimiz tahsinga sazovordir.

Ilhom SUVANOV,
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar
instituti ilmiy kotibi,
falsafa fanlari doktori

O'ZBOSHIMCHALIK BILAN EGALLANGAN YERLARGA MULK HUQUQI E'TIROF ETILMOQDA

☐ **XO'SH, bunday yerlarni qonuniylashtirish qanday asos va tartibda amalga oshiriladi, degan haqli savol tug'ilishi tabiiy.**

Hozirgi kunda huquqiy hujjatlari yo'q yoki to'liq bo'lmagan, yer uchastkasidan uzoq yillar davomida foydalanib kelayotgan yoki yerga bo'lgan huquqlarni rasmiylashtirish masalasi yer egasiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra oxiriga yetmagan yer uchastkalari mavjud.

Qolaversa, amaldagi qonunchilikda ushbu yerlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish uchun huquqiy asos ham, vakolatli organ ham belgilanmagan.

Shu sababli 2024-yilning 5-avgustida Yurtboshimiz tomonidan "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi qonun imzolandi. 2024-yil 5-noyabrdan kuchga kirgan mazkur qo-

nun 2028-yil 1-yanvarga qadar amal qiladi.

Qonunga asosan quyidagi ko'chmas mulklarga nisbatan huquqlar e'tirof etilishi belgilandi:

- 2018-yil 1-may kuniga (2018-yildagi "bir martalik aksiya"ga) qadar fuqarolar yakka tartibdagi uy-joy qurgan holda o'zboshimchalik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;
- 2018-yil 1-may kuniga qadar fuqarolar va tashkilotlar tomonidan hujjatda ko'rsatilgan maydondan ortiqcha egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;
- "bir martalik aksiya" doirasida huquqlarni e'tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga;



- 2021-yil 8-iyunga (hokimlarning vakolati bekor qilinguniga) qadar tuman (shahar) hokimlari qarori bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanmagan yer uchastkalariga;

("Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonunning 10-moddasiga muvofiq (2020-yil 15-sentabr tahriri) viloyat, tuman, shahar hokimliklarining

yer munosabatlari sohasidagi qarorlari xalq deputatlari tegishli Kengashi tomonidan tasdiqlanishi nazarda tutilgan.)

- bog'dorchilik va uzumchilik shirkatlari hududidagi turar joylar hamda ular egallagan yer uchastkasiga;
- kichik sanoat zonalarini hududiga 2020-yil 9-martga qadar joylashtirilgan tadbirkorlarning yer uchastkasiga;
- davlat orderi bilan xususiy lashtirilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasiga;
- hokim qarori bilan mulk huquqi e'tirof etilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasiga.

Bunda, ijara muddati yakka tartibdagi uy-joylar egallagan yer uchastkalari uchun to'qson to'qqiz yil, boshqa yer uchastkalari uchun qirq to'qqiz yil etib belgilanmoqda.

Sunnatillo ABDURASULOV,
Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i

HUQUQIY DAVLAT – HUQUQIY MAHALLADAN BOSHLANADI

☐ **MAHALLA milliy urf-odat hamda Sharqona qadriyat va an'analarimizni avlodlardan avlodga bezavol yetkazadigan, xalqimizni o'zaro bir-biri bilan uyg'un bo'lib yashashga o'rgatadigan, yosh avlod vakillarini bag'rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, o'z yutuq va kamchiliklarini muhokama qiladigan hamda muammolariga yechim izlaydigan unikal maskan hisoblanadi.**



Bugungi kunda jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla instituti aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aйлandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, endi odamlar o'zlarini qiynayotgan muammolar yechimini hal etishni so'rab, turli idoralarga qatnashiga hojat qolmadi. Muammolar adliya organlari tomonidan mahallalarda uyma-uy yurgan holda aniqlanib, tahlil qilib boriladi hamda bartaraf etiladi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 24-maydagi farmoni bilan aholining kundalik hayotida uchraydigan huquqiy muammolarni aniqlash, ularni tahlil qilish va bartaraf etib borish – adliya organlari faoliyatining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Shundan kelib chiqib, joriy yilning yanvar oyida 13 ta mahalla tanlab olinib, "Huquqiy mahalla" loyihasi doirasida 13 ta maktabda "Huquq sinfi" tashkil etildi, 50 nafar ishsiz xotin-qizlar bandligi ta'minlandi, 6 ta qonun va 38 ta standartlarda belgilangan huquqiy normalarning hayotga tatbiq etilishi ahvoli o'rganilib, aniqlangan

muammolar bartaraf etildi, 512 dan ortiq xonadon sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlandi. Har bir tanlangan mahalla binosida sayyor qabul tashkil etilib, 950 nafardan ortiq fuqarolarning turli sohalarga oid murojaatlari joyida hal qilindi. Uyma-uy yurish va "Huquqiy ko'mak" aksiyalarini o'tkazish orqali fuqarolar va tadbirkorlarning 13 ming 967 ta huquqiy muammolari o'rganilib, 24 nafardan ortiq fuqarolarning tug'ilish, nikoh, o'lim, kadastr va boshqa hujjatlari rasmiylashtirildi. 584 nafar shaxsga mulk va 30 nafar fuqaroga daromad solig'i bo'yicha imtiyozlar qo'llanildi, 483 ta uyning kadastr hujjatini rasmiylashtirish uchun arizalar kiritildi, 53 nafar fuqaroga nikohdan ajratish va pensiya masalalari bo'yicha sudlarga arizalar loyihasi tayyorlab berildi, 1 ming 759 ta sayyor tartibda davlat xizmatlari ko'rsatildi.

Shuningdek, "Mahalla yettilligi" faoliyatida yagona huquqni qo'llash amaliyotini yo'lga qo'yish borasida 24 ta qo'llanma tayyorlanib, mahalla binosida huquqiy ma'lumot burchaklari va kutubxona tashkil etildi, 15 turdagi yig'ilish bayonnoma-sining namunaviy shakli tayyorlandi, 12 ta komissiya va kengashlarning Nizomi, 7 ta mansab yo'riqnomasi va 13 ta huquqiy peshlavha, 9 ta namunaviy hujjat loyihasi ishlab chiqildi.

Huquqiy davlat – huquqiy mahalladan boshlanadi, degan harakat amalda o'z ifodasini topmoqda.

Nodir JUMANIYOZOV,
Xorazm viloyat adliya boshqarmasi boshlig'i

YASHIL IQTISODIYOT

☐ **MAMLAKAT iqtisodiy taraqqiyotining asosiy maqsadlaridan biri – yalpi ichki mahsulotni 2030-yilgacha har yili kamida 6 foizga oshirish va uning hajmini 200 milliard AQSH dollariga yetkazishdir. Ammo bu natijalarga eski usullar bilan erishib bo'lmaydi. Aynan shu sababli sanoat va transport tarmoqlarida uglerod chiqindilarini kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston energiya balansiga qayta tiklanuvchi energiya ulushini 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan. 2025-yilda 4,5 GVt quvvatga ega quyosh va shamol elektr stansiyalari ishga tushirilishi, 785 MVt quvvatga ega quyosh panellari o'rnatilishi, 225 MVt quvvatga ega yangi gidroelektr stansiyalar barpo etilishi ko'zda tutilgan.**

Shuningdek, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatish uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, kichik va mikro gidroelektr stansiyalar qurilishini qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilmoqda. Bunday keng qamrovli chora-tadbirlar O'zbekistonning ekologik o'zgarishlarga moslashgan, energiya tejamon davlat sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Shahar va mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash masalasi ham dolzarb. Nafaqat sanoat, balki urbanizatsiya jarayonida ham yashillik darajasini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Soyali sayr ko'chalari" dasturi doirasida ekologik infratuzilma obyektlari barpo etilib, 200 million tup daraxt ekish rejalashtirilgan. Orol dengizi hududida esa 100 ming gektar yangi o'rmonzorlar barpo etilishi ko'zda tutilgan.

Shuningdek, transport tizimi ham tubdan o'zgarmoqda. AI-80 markali avtomobil yonilg'isidan foydalanish cheklanib, mazut yoqilg'isidan foydalanish to'liq taqiqlanmoqda. Shu bilan birga, issiqlik elektr stansiyalarida ko'mir yoqilg'isiga alternativ sifatida qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tish choralari ko'rilmoqda. Elektromobillarni ommalashtirish va elektr quvvatlash stansiyalarini ko'paytirish ham yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekistonning yashil iqtisodiyot bo'yicha tashabbuslari xalqaro moliyaviy institutlar tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. 2025-yilda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan 200 million yevro, Jahon bankidan 10 million AQSH dollari, Global yashil o'sish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligidan 6,5 million AQSH dollari va Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan 20 million yevro jalb qilish rejalashtirilgan. Ushbu mablag'lar energiya samaradorligini oshirish, metan emissiyasini kamaytirish va sanoatni yashillashtirishga yo'naltiriladi.

Nargiza FAYZIYEVA,
Samarqand viloyat adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

4 SO'RAGAN EDINGIZ

“NABIRAM BILAN KO'RISHTIRMAYAPTI”



– O'G'LIMNING oilasi kelishmovchilik sabab buzilgan. Nabiramni juda yaxshi ko'rardim. Nabiram kelinim bilan ketgan. Sud ajrimida nabiram bilan ko'rishib turishim belgilangan. Kelinim nabiramni onasiga tashlab boshqa oila qurib ketdi. Yaqinda nabiramni ko'rishga borsam, sobiq kelinimni onasi uni menga ko'rsatmadi. Qudamning aytishicha, kelinim ko'rsatmaslikni talab qilarkan. Uning bu qilmishini kim tartibga keltiradi?



– Oila kodeksining 77-moddasida “bolaning bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlarning bola bilan ko'rishib turish huquqi” belgilangan. Unga ko'ra, bobo, buvi, aka-uka, opa-singil va boshqa yaqin qarindoshlar bola bilan ko'rishib turish huquqiga ega. Agar ota-ona (ulardan biri) vasiylik va homiylik organining qarorini bajarmasa, bolaning yaqin qarindoshlari yoki vasiylik va homiylik organi bola bilan ko'rishib turishga to'sqinlik qiluvchi hollarni bartaraf qilish haqida da'vo bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Sud bolaning manfaatlarini va fikrini hisobga olgan holda nizoni hal qiladi. Sudning qarori bajarilmagan taqdirda aybdor ota (ona)ga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Ya'ni kelinigingizga nisbatan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 198-2-moddasiga ko'ra: sud hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilikni buzganliklari uchun bazaviy hisoblash

miqdorining 5 baravaridan 10 baravarigacha jarama belgilanishi mumkin.

Bundan tashqari, Jinoyat kodeksining 232-moddasida “sud hujjatini ijro etmaslik” uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, muayyan harakatlarni sodir etish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlashni ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin davom ettirsa, – bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki 360 soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki 1 yilgacha ozodlikni cheklash yoki 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bizningcha, kelinigingiz va qudangiz ushbu javobgarliklardan bexabarligi aniq. Bo'lmasa bunday harakat qilmas edi.

Gulmira AKMURODOVA,
Buxoro tuman adliya bo'limi
FHDY bo'limi mudiri



– NIKOH shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish qanday tartibda amalga oshiriladi?



– Nikoh shartnomasi er-xotinning kelishuvi bilan istalgan vaqtda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Nikoh shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, uning o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi ham xuddi shunday shaklda amalga oshiriladi.

Nikoh shartnomasini bir tomonlama bajarishdan bosh tortishga yo'l qo'yilmaydi. U er-xotindan birining talabi bilan Fuqarolik kodeksida belgilangan asoslar va tartibda sudning hal qiluv qarori bilan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Nikoh tugatilgan paytdan boshlab nikoh shartnomasining amal qilishi ham tugaydi, nikoh shartnomasida nikoh tugatilganidan keyingi davr uchun nazarda tutilgan majburiyatlar bundan mustasno.

Feruza UMATALIYEVA,
Namangan shahar adliya bo'limi FHDY
bo'limi mudiri



– SUDLANMAGANLIK to'g'risidagi ma'lumotnomaga apostil qo'ydirishim kerak. Menga shu haqda tushuncha bersangiz?

APOSTIL QO'YDIRISHIM KERAK



– Vazirlar Mahkamasining 732-sonli qarori bilan tasdiqlangan rasmiy hujjatlarga apostil qo'yish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatishning Ma'muriy reglamentiga asosan jismoiy va yuridik shaxslarga vakolatli davlat organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida tuzilgan rasmiy hujjatlarga “Apostille” maxsus shtampini qo'yish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatiladi.

Apostil bilan Xorijiy rasmiy hujjatlarni legallashtirish talabini bekor qiluvchi konvensiyaning 5-moddasiga muvofiq, rasmiy hujjatni imzolagan mansabdor shaxsning imzosi haqiqiyliigi, imzolash vakolati mavjudligi hamda hujjatni tasdiqlagan muhr yoki shtamp bosma izi haqiqiyliigi tasdiqlanadi.

Sudlanmaganlik to'g'risidagi ma'lumotnomaga, sudlardan chiqadigan rasmiy hujjatlar bo'yicha apostil qo'yish davlat xizmati Oliy sud tomonidan amalga oshiriladi.

Murojaat etuvchi davlat xizmati olish uchun davlat xizmatlari markaziga o'zi kelib yoki YIDXPda ro'yxatdan o'tgan holda elektron tarzda murojaat etishi mumkin.

So'rovnoman ko'rib chiqish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida yig'im undiriladi. (YIDXP) orqali ro'yxatdan o'tganda esa yigim summasining 90 foizi miqdorida davlat boji to'lanadi.

So'rovnoma rasmiy hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab vakolatli organ tomonidan ikki ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Mashhura ISOMIDDINOVA,
Mingbuloq tuman adliya bo'limi davlat
xizmatlari markazi direktori

XODIM ARIZANI QAYTARIB OLISHGA HAQLI



– MEHNAT shartnomasi xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilinganda, belgilangan muddatlar haqida tushuntirish bersangiz.

– Mehnat kodeksining 160-moddasiga muvofiq xodim nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek, muddati tugaguniga qadar muddatli mehnat shartnomasini o'n to'rt kalendar kun oldin bu haqda ish beruvchini yozma shaklda ogohlantirgan holda bekor qilishga haqli. O'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishda, ish beruvchini ogohlantirishning boshqa muddatlari quyidagicha:

Tashkilot rahbari o'z tashabbusiga ko'ra, nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini, shuningdek, muddati tugashidan oldin muddatli mehnat shartnomasini bekor qilishga haqli bo'lib, bu haqda ish beruvchini ikki oy oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak.

Rahbar o'rinbosarlari, bosh buxgalter, alohida bo'linmalar rahbarlari o'z tashabbusiga ko'ra, nomuayyan muddatga tuzilgan, shuningdek, muddatli mehnat shartnomasini ham bekor qilishga haqli bo'lib, bu haqda ish beruvchini bir oy oldin yozma shaklda ogohlantirishi kerak.

Mavsumiy hamda vaqtinchalik xodim ish beruvchini uch kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirib, mehnat shartnomasini o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishga haqli.

Xodim yakka tartibdagi tadbirkor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini tadbirkorni yetti kalendar kun oldin yozma shaklda ogohlantirgan holda o'z tashabbusiga ko'ra bekor qilishi mumkin.

Ogohlantirish muddatining o'tishi ish beruvchi tomonidan xodimning mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi arizasi olinganidan so'ng keyingi kunda boshlanadi.

Taraflarning kelishuviga ko'ra, belgilangan ogohlantirish muddati davomida, shu jumladan, ogohlantirish muddati so'nggi kuni ish vaqti tugaguniga qadar xodim o'zi bergan arizani qaytarib olishga haqli.

Agar ogohlantirish muddati tugagandan keyin xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinmagan va yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlar davom etayotgan bo'lsa, mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish haqidagi ariza o'z kuchini yo'qotadi, mehnat shartnomasini ushbu arizaga muvofiq bekor qilishga esa yo'l qo'yilmaydi.

Mehnat shartnomasini xodimning tashabbusiga ko'ra bekor qilish to'g'risidagi ariza u o'z ishini davom ettirishi mumkin emasligi (ta'lim tashkilotiga qabul qilingani, pensiyaga chiqqani, saylab qo'yiladigan lavozimga saylangani va boshqa hollarda) bilan bog'liq bo'lgan hollarda ish beruvchi mehnat shartnomasini xodim iltimos qila-yotgan muddatda bekor qilishi kerak.

Yodgora ISKANDAROVA,
Yakkasaroy tuman adliya bo'limi
2-son FHDY bo'limi
1-toifali inspektori



SUBSIDIYAGA ARIZA BERISH BOSHLANDI: MUHIM 7 SAVOLGA JAVOB



IMTIYOZLI PENSIYA SUD ORQALI HAL BO'LDI

QORAQALPOG'ISTON Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan fuqaro Roza Urinbetovanning Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi Nukus shahar bo'limi mas'ullarining xatti-harakatidan norozi bo'lib, amaliy yordam so'rab qilgan murojaati o'rganildi.

Aniqlanishicha, R. Urinbetova 2024-yil sentabr oyida imtiyozli ravishda yoshga doir pensiyaga chiqishni so'rab, Nukus shahar budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi bo'limiga murojaat qilgan. Ammo arizachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlar bo'lim tomonidan o'rganib chiqilib, rad qilingan. Bu haqda Nukus shahar Pensiya jamg'armasi bo'limining 2024-yil 10-oktabrdagi 796-sonli



qarori qabul qilingan. Qarorda R. Urinbetova imtiyozli ravishda yosh-

ga doir pensiyaga chiqqanligiga Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-sonli qarori bilan tasdiqlangan 3-ro'yxat 1-bo'limida belgilangan imtiyozli ravishda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ish staji to'liq attestatsiyadan o'tmagani asos sifatida ko'rsatilgan.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi qonunning 11-moddasiga ko'ra, oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar ushbu qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi:

b) mehnat sharoiti zararli va og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar;

erkaklar – ish staji kamida 25 yil bo'lib, bundan kamida 12 yilu 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar – ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Yuqoridagilarga ko'ra, fuqaro R. Urinbetovanning zararli va og'ir ishlarda ishlaganlik fakti tasdiqlanmasdan turib, fuqaroning imtiyozli ravishda pensiyaga chiqish imkoniyatligi ma'lum bo'ldi.

R. Urinbetovanning manfaatida zararli va og'ir ishlarda ishlaganlik faktini tasdiqlash yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'ng'iroq tumanlararo sudiga ariza kiritildi. Sudning hal qiluv qarori bilan fuqaroning zararli va og'ir ishlarda ishlaganlik fakti tasdiqlandi va unga imtiyozli ravishda yoshga doir pensiya tayinlandi.

Jamshid BEKIMBETOV,
Qoraqalpog'iston Respublikasi
Adliya vazirligi mas'ul xodimi

ORADAN 55 YIL O'TIB...

UCHQO'RG'ON tumanidagi “Farg'ona” mahallasida yashovchi fuqaro I. Mahmudovning ukasi bundan ellik besh yil avval vafot etgan. Biroq e'tiborsizlik sababli unga o'lim haqidagi guvohnoma rasmiylashtirilmagan.

Fuqaro o'zi istiqomat qilayotgan uy-joyini notarial tartibda meros sifatida rasmiylashtirishda muammoga duch kelgach, vafot etgan ukasining o'lganlik faktini belgilashda amaliy yordam so'rab, tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Aniqlanishicha, 1970-yil 25-mayda tug'ilgan ukasi Ikromjon Iminov 1970-yil 1-iyunda o'z yashash xonadonida kasallik tufayli vafot etgan. Mahalla ahlining tasdiqlashicha, u “Yangiyer” mahallasi hududidagi “Xo'ja Sayid” qabristoniga dafn qilingan.

To'plangan dalillarga ko'ra, I. Mahmudovning ukasi Ikromjonning vafot etganlik faktini belgilash yuzasidan fuqarolik ishlari bo'yicha Uchqo'rg'on tumanlararo sudiga ariza kiritilib, sudning hal qiluv qarori qabul qilindi.

Azamat SHAMSIDDINOV,
Uchqo'rg'on tuman adliya
bo'limi boshlig'i

MEHNATGA LAYOQATSIZLIK PULI TO'LANMAGAN

TO'RTKO'L tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 45-sonli oilaviy poliklinikada ishlovchi fuqaro B. F. mehnatga layoqatsiz bo'lgan davri uchun nafaqa puli to'lab berilmayotganidan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Murojaatni o'rganish davomida, haqiqatan ham xodim buxgalteriya tomonidan 2025-yil 1-fevral sanasida mehnatga layoqatsiz bo'lgani to'g'risidagi №02KP000834725-sonli varaq bilan ro'yxatga olingan. Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 31-maydagi 314-sonli qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug'ilish bo'yicha nafaqalarni hamda yangi tug'ilgan bolani farzandlikka olgan yoki unga vasiy qilib belgilangan xodimga nafaqani tayinlash hamda to'lash tartibi to'g'risida”gi Nizomning 1-bob 6-bandida “Nafaqa to'lash muddatlari jamoa shartnomasida yoki ichki hujjatda, ular mavjud bo'lmaganda esa mehnat shartnomasida shart qilib ko'rsatilgan muddatlarda belgilanadi. Lekin mehnatga layoqatsizlik varaqasi taqdim etilgan kundan



boshlab o'n olti kalendar kundan ko'p bo'lmayligi lozim (qonunchilikda belgilangan ish haqi bir oyda bir marta to'lanadigan xodimlar toifasi bundan mustasno) deb belgilangan bo'lishiga qaramasdan, xodimga nafaqa puli hisoblanmagani va to'lanmagani aniqlandi.

Tuman adliya bo'limi tomonidan ko'rilgan ta'sir chorasi natijasida, B. F.ga 863 ming so'm miqdorida mehnatga layoqatsizlik nafaqa puli to'lanishi ta'minlandi.

Davranbek ALLABERGENOV,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi
yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti

YO'QQA CHIQQAN ISH STAJI

TO'RTKO'L tumanidagi “Yangi avlod” ko'chasida yashovchi fuqaro I. R. ayrim yillardagi ishlagan davri ish staji sifatida pensiya tayinlashda hisobga olinmasdan qolgani, tuman budjetdan tashqari pensiya jamg'armasining pensiya va nafaqa tayinlash komissiyasining qaroridan norozi bo'lib, tuman adliya bo'limiga murojaat qilgan.

Murojaatni o'rganish davomida, haqiqatan ham fuqaroning mehnat daftarchasida uning bir qator tashkilotlarda ishlagani ko'rsatilgan, lekin taqdim

qilingan ish haqi ma'lumotnomalarida 1975, 1976, 1981, 1982, 1986, 1987, 1994, 1998 hamda 1999-yillarda ishlagan davri uchun ish haqi hisoblanmagani bois budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limi pensiya va nafaqa tayinlash komissiyasining yuqorida qayd etilgan qaroriga asosan inobatga olinmagani aniqlandi.

Vaholanki, Mehnat kodeksining 125-moddasi birinchi qismida “lozim darajada tasdiqlangan qog'oz yoki elektron shakldagi mehnat daftarchasi xodimning mehnat stajini tasdiqlovchi va jismoniy

shaxsning mehnat faoliyati to'g'risidagi verifikatsiya qilingan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan asosiy hujjatdir” deb ko'rsatilgan.

Tuman adliya bo'limi tomonidan fuqaroning ishlagan davrini tasdiqlovchi mehnat daftarchasidagi tegishli yozuvlar asosida ish stajini hisobga olish yuzasidan budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi To'rtko'l tuman bo'limiga taqdimnoma kiritilib, mehnat daftarchasidagi hisoblanmagan yillar uchun ish staji hisoblanishi ta'minlandi.

Nasiba ABDURAXMANOVA,
To'rtko'l tuman adliya bo'limi yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

ISHONGAN TOG'DA KIYIK YOTMAS



DONO xalqimizning mazkur iborasi juda topib aytilgan-da. Buni jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudi-da ko'rilgan, bugun tilga olinayotgan ish ham tasdiqladi.

Huquqshunos Beknazar Nusratov (ism-familiyasi o'zgartirilgan) oliy-gohni tamomlagach, huquqni muhofaza qiluvchi idoraga ishga kiradi. 2021-yilda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Toshkent viloyatidagi tuman bo'limlaridan biriga boshliq etib tayinlanadi.

Albatta, shundan keyingi 3 yil mobaynida B. Nusratovning tuman-da qonun ustuvorligini ta'minlash va iqtisodiy jinoyatlarni fosh etish borasidagi mehnatlarini e'tirof etmaslik mumkin emas. Ammo...

Ammo 2024-yil avgust oyida u nafs amriga bo'ysunib, yuzi shuvit bo'ldi. Aniqlanishicha, 2022-yilda hududdagi g'isht ishlab chiqaruvchi "Doston Bunyodkor Baraka" mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbari A. Irgashevga nisbatan tabiiy gazdan noqonuniy foydalanganlik hamda davlatga 3,5 milliard so'm zarar yetkazganlik holati bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan. O'shanda mazkur jinoyat ishi tuman prokuraturasi orqali tuman IIBga kelib tushgan. Biroq 2022-yil dekabr oyida IIB tergovchisi qaroriga muvofiq, jamiyat mansabdor shaxslarining harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lmagani sabab-

li Jinoyat protsessual kodeksining 83-moddasi 2-bandiga asosan jinoyat ishi qo'zg'atish rad etilgan.

Oradan 2 yil o'tgach – 2024-yil avgust oyida esa tuman prokuraturasi tomonidan tergovchining qarori bekor qilinib, yana qo'shimcha tergovga qadar tekshiruv o'tkazila boshlangan. Bundan xabar topgan Beknazar A. Irgashevni xizmat xonasiga chaqirib, 3,5 milliard so'mlik zararni qayta hisoblash yo'li bilan 200 million so'mgacha kamaytirish, qolaversa, qaytadan qo'zg'atilishi mumkin bo'lgan jinoyat ishini uning foydasiga hal qilib berishi mumkinligini aytadi. Tekinga emas, albatta. Ya'ni, Departament bo'lim boshlig'i tergovga qadar tekshiruv natijalari bo'yicha yengillik qildirib berish evaziga 50 ming AQSH dollari so'raydi.

– Hozir buncha pulim yo'q. O'rniga ellik ming dona g'isht bersam-chi?, – deydi tadbirkor o'zining moddiy ahvolini tushuntirib.

Lekin B. Nusratov bunga ko'nmaydi. Shundan so'ng A. Irgashev Respublika Davlat xavfsizlik xizmatiga ariza bilan murojaat qiladi. Oqibatda ta'magir xodim poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida talab qilingan 50 ming AQSH dollaridan bo'nak tariqasida 10 ming AQSH dollarini oladi. Keyin shaxsiy avtomashinasiga o'tirib, Mirzo Ulug'bek tumani Ziyolilar ko'chasi tomonga harakatlanib ketayotganida o'ziga nisbatan tezkor tadbir o'tkazilayotganini sezib qoladi. Ammo olgan pullarini mashinasidan ko'chaga irg'itib yuborgan paytda ash-yoyiy dalil bilan ushlanadi. Binobarin, mazkur holat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atiladi.

Jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo Ulug'bek tuman sudi Beknazar Nusratovni Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan aybli deb topib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etdi.

Dilnoza HOLIQNAZAROVA,
jinoyat ishlari bo'yicha Mirzo
Ulug'bek tuman sudi sudyasi

OILAVIY ZO'RAVONLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BELGILANGAN

MAMLAKATIMIZDA ayollarning har bir jabhada faol bo'lishlarini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish borasida tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu maqsadda 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. 2023-yil 11-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, oilaviy (maishiy) zo'rvonlik uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik ham belgilandi.



Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik – xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birgalikda yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo'lgan shaxsga nisbatan sodir etilgan mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va (yoki) mehnatga oid huquqini amalga oshirishga to'sqinlik qilish, mol-mulkiga va shaxsiy ashyolariga qasddan shikast yetkazish, xuddi shuningdek, ushbu shaxslar sog'lig'ining yomonlashuviga olib kelgan tarzda ularning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, ularni qo'rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish, do'pposlash, ushbu shaxslarga sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga olib kelma-gan qasddan badanga yengil shikast yetkazish kabi holatlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, "Oilaviy (maishiy) zo'rvonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi 2024-yil 21-oktabrdagi qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi va Jinoyat kodeksining oilaviy (maishiy) zo'rvonlik to'g'risidagi 126¹-moddasi bolaga nisbatan oilaviy (maishiy) zo'rvonlik qilganlik uchun javobgarlik bilan to'ldirildi.

Oilaviy-maishiy zo'rvonlikka qarshi yolg'iz kurashish ancha qiyin. Qo'rqib yashovchi, ruhiy jihatdan ezilgan zo'rvonlik qurboni aniq qarorlar qabul qilish holatida bo'lmaydi. Bu yerda nafaqat yaqinlar, balki davlat tomonidan ham qo'llab-quvvatlash zarur va muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Zero, zo'rvonlik, eng avvalo, shaxsga qarshi jinoyat, shaxsiy erkinlik huquqlarining buzilishidir. Jamiyatimizda oiladagi zo'rvonlikning oldini olish maqsadida jamoatchilik orasida keng tushuntirish ishlari olib borish, mavjud streotiplarni o'zgartirish talab etiladi. Bu ishga nodavlat tashkilotlarini, OAV va keng jamoatchilikni jalb qilish ham o'z samarasini beradi.

Ergash QARSHIYEV,
jinoyat ishlari bo'yicha Payariq tuman
sudining tergov sudyasi

ALIMENT UNDIRISHNING IKKITA YO'LI BOR

ALIMENT undirishning ikkita yo'li mavjud: ota-ona o'rtasida aliment kelishuvi tuzish orqali ixtiyoriy to'lash, sud buyrug'i yoxud sudning hal qiluv qarori asosida majburiy undirish.

Oila kodeksning 136-moddasiga ko'ra, aliment olish huquqiga ega bo'lgan shaxs aliment talab qilish huquqi vujudga kelganidan so'ng qancha muddat o'tganidan qat'i nazar, xohlagan vaqtda aliment undirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilishga haqli.

2024-yilning oktabr oyida fuqarolik ishlari bo'yicha Karmana tumanlararo sudida ana shunday qonuniy nikohsiz yashagan bir oilaning aliment bo'yicha ishi ko'rib chiqildi. Da'vogar – M. Sodiqova (ism-shariflar o'zgartirilgan) tomonidan javobgar – X. Odilovga nisbatan otalikni belgilab, aliment undirish to'g'risida sudga da'vo arizasi kiritilgan.



Sudda ma'lum bo'lishicha, M. Sodiqova X. Odilov bilan turmush qurgan, ammo nikohlari qonuniy rasmiylashtirilmagan. Turmushlaridan bir nafar farzandi bor.

Da'vogarning ko'rsatmasiga ko'ra, javobgar bilan uch yil birga yashagan davr mobaynida erining oila a'zolari uni hurmat qilmagan, hatto javobgar qonuniy nikohdan o'tishni ham istamagan. Nikohdan o'tmagani sababli bolaga otasining emas, o'zining familiyasini bergan. Hozirda bu oiladan ketib, farzandini o'zi tarbiyalayotganini, hech qayerda ishlamasligini bildirib, X. Odilovning otaligini belgilab, farzandining ta'minoti uchun javobgardan farzandi voyaga yetguniga qadar aliment undirishni so'ragan.

Sud da'vogar ko'rsatmalaridan kelib chiqib, javobgar – X. Odilov va ishonchli vakili, ya'ni onasining bolani tan olganini inobatga olib, otalikni belgilash va farzandning ta'minoti uchun aliment undirish to'g'risidagi da'vo talabini qanoatlantirishni lozim deb topdi.

Dilfuza AHMEDOVA,
fuqarolik ishlari bo'yicha
Karmana tumanlararo sudi sudyasi



SHAXS ISHTIROKISIZ YOKI XABARISIZ KREDIT RASMIYLASHTIRISHNING OLDI OLINADI



HUQUQIY TA'LIM-TARBIYA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLADI

KONSTITUTSIYANING 50-53-moddalari aynan ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan bo'lib, belgilangan me'yorlarda ta'lim olish huquqi, ta'lim tizimining barcha tur va shakllari, nodavlat ta'lim tashkilotlari rivojining ta'minlanishi, bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olish kafolatlanishi, umumiy o'rta ta'lim majburiyligi, bolalar mehnatining og'ir shakllaridan himoya qilinishi, alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiyaga e'tiborni kuchaytirish, oliy ta'lim muassasalariga akademik erkinlik berilishi kabi zaruriy qoidalar o'z aksini topgan. Mazkur normalar yoshlarni zamonaviy bilim va ko'nikmalar, milliy qadriyatlar va axloqiy qoidalarga sodiq bo'lishga undaydi.

Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishi, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qilishining Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi ayni muddao bo'ldi. Chunki ta'lim-tarbiya tizimidagi islohotlar samarasi, shaxs kamoloti, jamiyat taraqqiyoti ko'p jihatdan ustoz va murabbiylarga bog'liq.

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 1-fevralda 21-moddadan iborat "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi qonun imzolandi. Mazkur hujjat yangilangan Konstitutsiyada qayd etilgan me'yorlarni yanada mustahkamladi,

pedagoglarning huquqlari, majburiyatlari, sha'ni, qadr-qimmat, faoliyatining asosiy kafolatlarini qonun bilan belgilab qo'ydi.

Yana bir muhim jihat. Konstitutsiyada ta'lim bilan tarbiya juft so'z sifatida qo'llanilgan, ta'lim va tarbiya yagona jarayon sifatida uyg'unlikda olib borish ta'kidlangan. Chunki sharqona ta'lim natijasi har doim tarbiya bilan belgilangan, tarbiya masalasi ijtimoiy hayotning ajralmas qismi deb qaralgan. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiy o'z asarida "Ta'lim faqat so'z va o'rgatish bilan shakllana boradi, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan amal-

ga oshiriladi", degan edi. Jadid adabiyotining yirik vakili Abdulla Avloniyning "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir", deb yozib qoldirgan o'giti tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishini anglatadi.

Jahon pedagogikasida tarbiya kategoriyasi tan olinmaydi. Lekin jahonning qator mashhur olim va adiblari ta'lim samarasi tarbiyaga bog'liq ekanini asoslab berganlar. Jumladan, nemis faylasufi Immanuel Kantning "Inson faqat tarbiya orqali inson bo'la oladi. U qanday inson bo'lishi - u olgan tarbiyaning mahsulidir". Yoki mashhur nazariyotchi fizik olim Albert Eynshteynning "Maktabning maqsadi mutaxassis emas, balki barkamol shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilishi kerak" degan fikrlari nechog'li haqqoniy ekanini zamonning o'zi isbotlamoqda.

Konstitutsiyada ta'limga oid yangi qoidalarning qo'shilishi yuridik ta'lim-tarbiyaning huquqiy asosla-

ri, asosiy prinsiplarini yanada mustahkamladi, huquqiy ta'limning samarali natijasi uchun keng imkoniyatlarni yaratdi. Chunki jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish huquq sohasi vakillari zimmasidadir.

Yuridik ta'lim-tarbiya yoshlarni huquq bilan bog'liq bilimlar bilan qurollantirish, bo'lajak mutaxassislarga ish yuritish hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirish va tuzish, qonun hujjatlarini izlash, qo'llash, mantiqiy-muammoli vaziyatlarni xolis hal qilish, to'g'ri qaror qabul qilish, huquqiy bilimlarni amaliyotda bemaol qo'llay olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Buning uchun yurist-talabalar nazariy bilimlarni amaliyot bilan uzviy bog'liqlikda o'zlashtirishi shart. Chunki huquqiy ta'lim-tarbiya jamiyatda har qanday huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, tartib-intizomni mustahkamlash, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi dolzarb vazifalarni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Gulnora GULYAMOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti professori

EKSPERTLARNING JINOYATNI OCHISHDAGI ROLI

Xatshunoslar turli qo'lyozma yozuvlar, raqamli belgilar, hujjatlardagi imzolarning bajaruvchisini va hujjatdagi matn bajaruvchisini aniqlaydi, fuqaroviy da'volarni ko'rib chiqishda, jinoyatning oldini olish va uni ochishda ahamiyatga ega bo'lgan turli hujjatlarni tuzish (yozish sharoiti, yozuvchining holati) bilan bog'liq bo'lgan boshqa haqiqiy ma'lumotlarni aniqlashga yordam beradi, ularni bajarishdagi shart-sharoitlar bo'yicha profilaktik tavsiyalar tayyorlaydi.

Hisob-kitob hujjatlarini qalbakilashtirish orqali amalga oshirilgan firibgarlik va o'g'rilik fakti bo'yicha jinoyat ishlarini tergov qilishda xatshunoslik ekspertizasi xulosalarining o'zni alohida ahamiyatga ega.

Ushbu turdagi ekspertizalarni o'tkazishning qiyinligi odamning yozma-harakat ko'nikmalari o'ta murakkab tashkiliy va ruhiy-fiziologik asosga ega ekanligi, tadqiqotlarning bevosita obyektlari bo'lgan qo'lyozma matnni bajarish jarayoni esa birdaniga bir necha ichki va tashqi omillar ta'sirida kechishi bilan bog'liq.

Ammo shunga qaramay, sud-xatshunoslik ekspertizasining zamonaviy darajasi juda keng qamrovli identifikatsion, diagnostik va klassifikatsion turdagi vazifalarni hal etish imkonini beradi.

Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazishda ashyoviy dalillarni kriminalistik jihatdan tadqiq etish tizimi muayyan xususiyatlarga ega. Qo'lyozmada yozma harakat ko'nikmasi xususiyatlarining xilma-xilligi

SUD-xatshunoslik ekspertizasi – kriminalistik ekspertizalarning eng murakkab turlaridan biri bo'lib, jinoyat, ma'muriy, iqtisodiy va fuqarolik ishlari bo'yicha obyektiv haqiqatni ochishga yordam beradi. Uning yordamida dastlabki tergov va sud organlari fuqarolik, iqtisodiy, ma'muriy, jinoyat ishlari bo'yicha ahamiyatli bo'lgan shart-sharoitlar aniqlanadi.



va bu xususiyatlarning har xil yozuv sharoitlarida o'zgaruvchanligida ko'rinadi.

Har qanday tadqiqotchi, jumladan, ekspert-xatshunos o'z faoliyatida ayniyat, ziddiyat, uchinchisini istisno etmoq, yetarli asos kabi mantiqiy fikrlash qonunlariga rioya qilishi kerak.

Xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish jarayonidagi ayniyat qonuni shundan iboratki, tadqiqotchining tafakkur obyekti yagona va uni boshqasi

bilan almashtirish mumkin emas. Boshqacha aytganda, xatshunoslik ekspertizasini o'tkazish jarayonida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita xulosa to'g'ri kelmaydi. Ziddiyat qonuni izchillik bilan mulohaza yuritishni talab etadi.

Sud-ekspertlik faoliyatida ekspert xulosasini shakllantirishda yetarli asoslash qonuni katta ahamiyatga ega. Ekspert tadqiqotning barcha yo'llarini nafaqat isbot-dalil va mantiqiy mulohaza yuritishga rioya qilgan holda bajaradi, balki fotojadval orqali ham ko'rsatadi. Tergovchi, sudya, ayblanuvchi, advokat hamda protsessning boshqa qatnashchilari ekspert xulosasi bilan tanishib chiqarkan, fotojadvalning mavjudligi tufayli xulosaning barcha qismlari mosligiga, shu bilan birga, berilgan xulosaning haqqoniyligiga ishonch hosil qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, jinoyatlarning oldini olishda yetakchi rol surishtiruv organlari, tergovchi, prokuror va sudga tegishli bo'lib, ular jinoyatlar sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni aniqlashga va ularni yo'q qilish choralari ko'rishga majburdirlar.

Nazira ILYASOVA,
X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud
ekspertiza markazi hujjatlar kriminalistik
ekspertizasi laboratoriyasi bosh eksperti,
davlat sud eksperti

8 ADLIYA FAXRIYLARI

O'zimizning ERMUHAMMAD AKA!

ERMUHAMMAD akani adliya, sud, prokuratura tizimida ko'pchilik yaxshi taniydi, hurmat qiladi. O'ziga xos salohiyatga ega, jonkuyar, talabchan, tinib-tinchimas, iste'dodli huquqshunos, birinchi darajali adliya maslahatchisi Ermuhammad Shermatov mehnatidan qadr topganlardan.

Andijonda tug'ilib-o'sgan, Toshkentda oliy o'quv yur-tida ta'lim olgan qah-ramonimizning mehnat faoliyati geografik jihat-dan ham, mazmun jihat-dan ham serqirra. U od-diy ishchi, haydovchi, ish o'rganuvchi vazifa-larini bajarishdan aslo og'-rinmadi. O'qidi, izlandi, 1977-yil Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamom-lab, 1978-yilda Nukus shahar pro-kuraturasiga prokuror yordamchisi etib tayinlandi. Shundan so'ng Ermuhammad aka hayotining pro-kuratura tizimidagi muhim va mashaqqatli sahifalari boshlandi. Uzoq yillar Yangiqo'rg'on tuman prokuraturasi tergovchisi, Norin va Uchqo'rg'on tumanlari proku-raturalarida tergovchi, shuning-dek, Namangan shahar prokuro-rining yordamchisi, Kosonsoy va Zangiota tumanlari prokuratu-ralarida tergovchi vazifalarida sa-marali faoliyat yuritdi. 1995-yildan Toshkent viloyat sudining sudyasi, sud raisi o'rinbosari lavozimida ishlab, mamlakatimizda sud-huquq tizimida amalga oshirilgan islohot-larning faol ishtirokchisi bo'ldi.

Adliya vazirligida bosh masla-hatchi, boshqarma boshlig'ining o'rinbosari, bo'lim boshlig'i bo'lib ishlagan kezlari ham zimmasi-dagi vazifalarni yuksak mas'uliyat bilan bajardi. "Huquq va burch" ij-timoiy-huquqiy jurnalida tashkiliy-nazorat va kadrlar bo'limi mudiri, xatlar va jamoatchilik bilan aloqa-lar bo'limi yetakchi muharriri bo'lib ishladi. Yuristlar malakasini oshirish

markazida katta o'qituvchi sifati-da huquqshunoslarga demokratik jamiyat qurish nazariyasidan saboq berdi.

Salkam 60 yillik mehnat faoli-yatining 36 yilini prokuratura, sud, adliya tizimiga bag'ishlagan Ermu-hammad Shermatov nafaqat soha fidoiysi, balki huquq olamida o'ziga xos tarixiy iz qoldiradigan, hujjatli kitob yaratishdek xayrli ishga qo'l urgan ma'rifatli ustoz sifatida ham hurmatga loyiq.

Ermuhammad aka Turkiston o'lkasi, O'zbekiston Respub-likasi yustitsiya xalq komis-sarlari va adliya vazirlari-ning hayoti va faoliyati haqidagi tarixiy hujjatlar solnomasini, yigirmanchi asrning fojiali voqealarini singdirgan "O'tmishdan kel-gan adolatli nidolar" kitobi bilan o'tgan davrning chek-siz armonlarini tarixga muhladi.

Kitobning kirish qismida nemis faylasufi Immanuel Kantning "Ado-lat yo'qolgan paytda hayotning qadrini belgilaydigan boshqa hech narsa qolmaydi" degan haqiqatini o'qib, adolat dunyodagi eng qudrat-li kuch ekanini tan olish va tabiiy-ki, ana shu aqidaga butun hayoti, mehnat faoliyati davomida amal qilgan qahramonimizga hurmatimiz yanada oshishi aniq.

Ermuhammad akaning hamisha ezgu niyatlari bilan yurganiga ko'p guvoh bo'lamiz. Gohida chet elda tahsil olayotgan o'zbekistonlik tala-balardan faxrlanib, maqola yozish-ga undasa, gohida aziz va muhtaram faxriylarning holidan xabar olish, yaxshi kunlarida qutlash tadorigida yurganiga shohidmiz.

Qahramonimiz qaysi sohada, qaysi lavozimda ishlamasin, mas'uli-yat va mashaqqatlarni teng taroziga qo'ydi. Barchasini adolat toshi bilan o'lchadi. Taqdirning unga in'om et-gan jamiki yaxshiliklarini qadrladi. Qutlug' yoshga yetib, shogirdlar, hamkasblar, yaqinlar mehrini qozo-nib yashash baxti muborak bo'lsin, Ermuhammad aka!



Tibbiyotchi huquqshunos

Rayimboy Rajabov 1950-yilning martida Xonqa tumanida tavallud topgan. U o'z faoliyatini tibbiyotdan boshlab, keyinchalik huquq sohasini egalladi.



Rayimboy aka mehnat faoli-yatini 1969-yilda Urganch shahar 1-sonli poliklini-kasida feldsherlikdan boshlagan. Harbiy xiz-matni o'tab qaytgach, viloyat onkologiya dis-panserida medbrat, ke-yinchalik dozimetrist, ra-diologik bo'limda dozimetrist va xo'jalik qismi bo'yicha bosh vrach o'rinbosari lavozimlarida mehnat qildi. Aholi salomatligini mustahkam-lashga o'z hissasini qo'shdi. Garchi, tibbiyot sohasida o'n yil xizmat qilib, yetarli tajriba to'plagan bo'lsa-da, kasbini o'zgartirdi.

Aslida tibbiyot va huquq mutlaqo bir-biridan uzoq, lekin juda kerakli soha. Ammo qahramonimiz huquq-shunoslik kasbini tanladi. Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini tamomlab, huquq-tar-tibot organlarida mehnat faoliyatini davom ettirdi. Dastlab Xorazm viloyat adliya boshqarmasida arxivarius va shikoyatlar bo'yicha inspektor, yetak-chi maslahatchi lavozimlarida ish-ladi. 1984-1991-yillarda Urganch tu-man xalq sudining sud ijrochisi, katta sud ijrochisi sifatida faoliyat yuritdi. Mustaqillikning dastlabki yillarida Xonqa tuman sudida sud-yalik lavozimiga tayinlandi. Sud-huquq sohasidagi islohotlarni amal-ga oshirishda faol ishtirok etdi. Qator yillar Yangibozor tuman dav-lat notarial idorasining stajyor-no-tariusi, xususiy notarial idorada no-tarius bo'lib ishladi. Notariat tizimi-da salkam 20 yil xalq xizmatida bo'ldi. Bor bilim va salohiyatini qo-nun ustuvorligini ta'minlashga, aholi-ning huquqiy bilimi va huquqiy ma-daniyatini yuksaltirishga sarfladi.

Tabarruk yoshingiz bilan qutlay-miz, Rayimboy og'a!

Marusa HOSILOVA,
"Inson va qonun" muxbiri

E'LONLAR

"Notariat to'g'risida"gi qonunning 152-moddasiga muvofiq, Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil 1-dekabr-dagi 40-um-son buyrug'iga asosan, G'al-laorol tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius D. Egamovga beril-gan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ul-lanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 (bir) oy muddatga (2025-yil 3-martdan) to'xtatilgani ma'lum qilinadi.

"MUHTASAR HAZORASP" advokatlik firmasi advokati Nurmetova Gulchexra Axmedovnaga Xorazm viloyat adliya boshqarmasi tomonidan 2018-yil 27-de-kabrda HZ-000025-raqami bilan "Fuqa-rolik va iqtisodiy, ma'muriy va jinoiy sud ishlarini yuritish" ixtisosligi bo'-yicha berilgan advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsen-ziyaning amal qilishi hamda advokatlik maqomi tugatildi.

Toshkent viloyat adliya boshqarma-si huzuridagi malaka komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 8/2025-son yig'i-lish qarori va boshqarmaning 2025-yil 4-martdagi 65-um-son buyrug'iga aso-san boshqarma tomonidan Oqqo'rg'on tumanida xususiy amaliyot bilan shu-g'ullanuvchi notarius Norqulov Jasur Abdushokir o'g'liga 2021-yil 14-dekabrda berilgan TS 0089 raqamli xususiy nota-rial faoliyat bilan shug'ullanish huquqi-ni beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2025-yil 5-mart kundan 1 (bir) oy mud-datga to'xtatildi;

Toshkent viloyat adliya boshqarma-si huzuridagi malaka komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 7/2025-son yig'i-lish qarori va boshqarmaning 2025-yil 4-martdagi 66-um-son buyrug'iga aso-san boshqarma tomonidan Zangiota tu-manida xususiy amaliyot bilan shug'ul-lanuvchi notarius Yusupov Shuxrat Azizovichga 2020-yil 22-aprelda beril-gan TS 0055 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2025-yil 7-mart kundan 1 (bir) oy mud-datga to'xtatildi;

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2025-yil 21-fevraldagi 6/2025-son yig'i-lish qarori va boshqarmaning 2025-yil 4-martdagi 67-um-son buyrug'iga aso-san boshqarma tomonidan Bo'ka tu-manida xususiy amaliyot bilan shug'ul-lanuvchi notarius Isxakova Nargiza Baxodirovnaga 2020-yil 22-aprelda berilgan TS 0064 raqamli xususiy nota-rial faoliyat bilan shug'ullanish huqu-qini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 2025-yil 5-mart kundan 15 (o'n besh) kun muddatga to'xtatildi;

Toshkent viloyat adliya boshqarmasi huzuridagi malaka komissiyasining 2025-yil 27-fevraldagi 9/2025-son yig'i-lish qarori va boshqarmaning 2025-yil 4-martdagi 63-um-son buyrug'iga asosan boshqarma tomonidan Bekobod shah-rida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuv-chi notarius Normatova Xulkar O'ktam qiziga 2020-yil 22-aprelda berilgan TS 0047 raqamli xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi lit-senziyaning amal qilishi 2025-yil 7-mart kundan 1 (bir) oy muddatga to'xtatildi.



ISTIROHAT BOG'LARI, SAYILGOHLAR VA XIYOBONLAR YER UCHASTKALARI SOLIQ SOLISH OBYEKTIGA KIRADIMI?



INSON
va qonun

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muharrir**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sherzod Abdullayev
Yorbek Iskandarov

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Marusa Hosilova

Sahifalovchi-dizayner
Ma'ruf Abdug'aniyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter ba-zasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 1 403
Buyurtma – 634

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5